



LINGUOPOETIC TRANSFORMATION OF TRADITIONAL SUFİ TERMS IN THE LITERATURE OF THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA DURING THE ENLIGHTENMENT AND JADİDİSM MOVEMENT

S. Khojakulov

Sharof Rashidov Samarkand State University, Institute of
Language and Culture of the Peoples of Central Asia, Doctor of
Philology (DSc).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17493711>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2025

Accepted: 30th October 2025

Online: 31st October 2025

KEYWORDS

Change, transformation,
conversion, renewal, term,
mysticism, spiritual
knowledge, love, beloved,
storyteller, traveler, dear,
bitter lot, reasoning, blessing.

ABSTRACT

The article examines the issue of transformation of traditional mystical and Sufi images in the enlightenment and Jadid literature of the peoples of Central Asia. Tradition is the most important component of the literature of the peoples of the world, and its change and evolution is one of the most complex and multifaceted processes. In particular, Sufi and mystical elements, deeply rooted in the literature of the peoples of the East, over time penetrated into the deepest roots of literature and reached the level of traditional terms of mystical literature. However, in Jadid literature, even traditional Sufi terminology has undergone changes in terms of linguopoetic principles, both lexical-semantic and artistic-figurative. The article examines and analyzes this topical issue from a scientific and theoretical point of view.

MARKAZIY OSIYO XALQLARI JADİD VA MA'RİFATPARVARLIK DAVRI ADABIYOTIDA AN'ANAVIY İRFONİY - TASAVVUFİY ATAMALARNING LINGVOPOETİK TABDİLİ

S.Xo'jaqulov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Markaziy Osiyo xalqlari tili va
madaniyati instituti, Filologiya fanlari doktori (DSc).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17493711>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2025

Accepted: 30th October 2025

Online: 31st October 2025

ABSTRACT

Maqolada O'rta Osiyo xalqlari ma'riftpararlik va jadid adabiyotida an'anaviy irfoniylar va tasavvufiy obrazlarining badiiy tadriji masalasi ko'rib chiqiladi. An'ana dunyo xalqlari adabiyotining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning o'zgarishi va evrilishi eng murakkab va chalkash jarayonlardan biridir. Xususan, Sharq xalqlari adabiyotida chuqur ildiz otgan so'fiylik va tasavvufiy unsurlar vaqt o'tishi bilan badiiy adabiyotning eng chuqur ildizlariga kirib borib, Sharq



KEYWORDS

O'zgarish, o'zgarish, aylantirish, yangilanish, atama, tasavvuf, irfon, ishq, mahbub, dedi, sayyod, yor, agyor, ijti hod, irshod.

adabiyoti uchun maxsus atama darajasigacha yetgan. Biroq jadid adabiyotida an'anaviy so'filyik terminologiyasi ham lingvopoetik tamoyillar, ham leksik-semantik, ham badiiy-majoziylik nuqtai nazaridan o'zgarishlarga uchradi. Maqolada mazkur dolzarb masala ilmiy-nazariy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi.

Adabiy tabdil ijodkorning badiiy tafakkur tadrijiga bog'liq bo'lgan murakkab va adabiy jarayonning ajralmas unsuridir. Mazkur hodisa muttasil, sub'ektiv va ob'ektiv omillar zamirida har bir tarixiy davrda ijtimoiy-siyosiy voqe'liklar, adabiy-estetik tamoyillar, tarixiy-nazariy hodisalar va muayyan poetik me'yorlar zamirida badiiy adabiyotda yuz berishi mumkin. Bu esa ijodkorning muayyan adabiy jarayonga bo'lgan o'ziga xos shaxsiy-individual munosabati, uning dunyoqarashi, badiiy tafakkur sathi, yuksak an'analar va azaliy qadriyatlarni zamon zayliga mutanosiblashtirish, badiiy obraz unsurlarini qayta uyg'unlashtira olish imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Badiiy obraz evrilishi ana shunday muhim hodisalardan biri bo'lib, adabiy jarayonda sub'ektning o'ziga xos tasvir usuli, voqelikning aks ettirilishi sifatida qaraladi. "U har doim yozuvchi yo shoir tomonidan o'zining dunyoga bo'lgan individual qarashlari va tanlangan ijod usuliga muvofiq o'zgartiriladi" [16,p.25].

An'anaviy badiiy talqinlar, obrazlar va adabiy turkumlar tizimidagi silsilaviy maxsus istilohlar har safar qayta ko'rib chiqiladi va to'ldiriladi, yangilanadi, takomillashtiriladi va shoirning badiiy dunyoqarashlari xususiyatlaridan yangi mazmun sari shakllanadi. Shu asnoda yozuvchi matn kontekstidagi umuminsoniy, umummilliy, ma'nolar zanjirini, so'z va istilohlarning lingvopoetik, asliy, ramziy, majoziy hamda semantik maydonini inobatga olgan holda masalaga oydinlik kiritadi.

Poetika tarixida obraz va tushuncha hamda uning tabdili borasidagi qarashlar fundamental ilmiy-nazariy, falsafiy va badiiy-estetik ahamiyatga molik hodisalardan biridir. Uning umumnazariy va tarixiy bosqichlari borasida nemis olimi E.R.Kurtius va rus olimi N.D.Tamarchenkolarining muayyan qarashlari mavjud va bu jarayon uchta bosqichda ajratib ko'rsatiladi. Birinchi bosqich sinkretizm, ikkinchi bosqich - eydetik poetika (boshqacha talqinda - refleksiv an'anaviylik, an'anaviy, me'yoriy, ritorik poetika), ya'ni uyqash tushuncha va obrazlarning bir-birini istisno etmasligi, ularning hali avtonom emasligi. Uchinchi bosqich - badiiy modallik poetikasi va bu bosqichda tasvir va g'oya avtonom maqom va modal munosabatlarga ega bo'lgan. [15,4]. Sharq adabiyotida tasavvufiy-irfoniy atamalarining tadriji va tabdili aynan uchinchi bosqichga, ya'ni adabiy modallik poetikasi bosqichi - badiiy obraz va tushunchani sifat jihatidan o'zgacha idrok etish aspektida namoyon bo'ladi. Zero Markaziy Osiyo xalqlari tasavvuf adabiyotida qo'llanilgan obrazlar, tushunchalar va atamalar bir xil emas. Bu jarayon, ya'ni adabiy jarayonda yuksak an'anaviy badiiy timsollarni o'zgacha idrok etish Evropa adabiyotiga qaraganda kechroq yuz bergan. Bu, albatta, ijtimoiy va madaniy hayotdagi o'zgarishlar, sharqona tamaddun va jamiyatdagi tub burilishlar, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa o'zgarishlarga bog'liq hodisadir.



Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshalri adabiyoti o'ziga xos yangi tarixiy davr bo'lib, insoniyatining eskicha yondashuvlarga bo'lgan munosabati, zamonaviy shaxsning an'anaviy adabiy konseptsionalarga bo'lgan butkul shakllangan yondashuvi, yangiliklarga intilishi, modern dunyoqarashning konservativ tamoyillarga qat'iy tarzda qaramaqarshi qo'yilishi aspektida namoyon bo'ladi. Ammo ma'rifatparvarlik va jadid ijtimoiy harakatchiligi qo'rasida toblangan ijodkor shaxs milliy va tarixiy o'zlikni teran anglagan, ham diniy, ham dunyaviy bilimlarni mukammal o'zlashtirgan, qolaversa milliy qadriyatlarini mukammal bilgan va ezozlagan shaxs sifatida gavdalanadi. Uning siyosiy-ijtimoiy, ilmiy-nazariy va badiiy-falsafiy tafakuri aslida ajdodlar ilmiy, falsafiy, diniy-irfoniy merosi negizida qurilgan va bunyod etilganligini e'tibordan soqit qilish mutlaqo noto'g'ri.

Bu davr Sharq xalqlari adabiyotida ziyoli ma'rifatparvar va madaniy shaxsning har bir so'zi uning tafakkurida, milliy she'riyatining asl javhari, so'z va kalom mas'uliyati, tasavvufiy-irfoniy vahdat, sharqona nafislik, o'ta nozik badiiy talqinlar va eng zamonaviy modernistik qarashlar, mantiqiy tahlil, faylasufona tafakkur tarzi va islomiy ma'rifat ruhiyati uyg'un holatda mujassamdir. Shu tarzda ular g'arbona g'oyalar va milliyatga yot bo'lgan mafkuralarga ko'r-ko'rona ergashmagan. Ularning har bir asari tabiatida azaliy ma'rifat uchqunlari, ma'naviyat, ilm-fan va madaniyat sohalarida tarixning olovli va jo'shqin oqimi mavjudligini unutmazlik kerak. Ular ma'nan va ruhan ma'rifat, ilm, irshod, irfon, isloh, tajaddud kabi yangicha ideologiyalar hamda keng ko'lamli ijtimoiy-madaniy islohotlarni erkin va ongli tarzda qabul qilish zarurligini anglab ulgurgan edi.

Ma'rifatparvarlik va jadidchilik adabiyotida adabiy an'analarga bo'lgan maxsus yondashuv va tamoyillar davr adabiy poetikasida alohida adabiy hodisadir. Bu munosabat va yondashuvlar, tizimli, sifatiy va tarkibiy o'zgarishlarga taalluqli bo'lib, aslida nisbiy xususiyatga ega. Zero bu jarayon davr ijodkorlarning muayyan doiralariga; ijodiy jarayon va yo'nalishlarni o'zgartirish, takomillashtirish va yangilashga moyil bo'lgan adiblar asarlarigagina tegishli formalistik hodisadir. Bu toifadagi adiblar ijodiyotida eng avvalo an'anaviy poetik unsurlarni takomillashtirish, lirik janrlarning shakl unsurlarini o'zgartirish va uning qolipiy strukturasi sindirish va buzishga intilishlar Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotida, asosan quyidagi holatlarda kuzatiladi: a) ustuvor adabiy an'alar sharoitida badiiy ifoda vositalari funktsiyalarining o'zgarishi va ularning g'oyaviy maqsadlarga moslashtirilishi; b) she'riyat tili va adabiy uslubni imkon doirasida soddalashtirishga intilish, unga yangicha uslub, "ko'cha-bozor" tiliga xos istilohlarni kiritish va shu yo'l bilan she'riyat tilini soddalashtirish; v) adabiy janrlarning ayrim turlariga ijodiy munosabatning o'zgarishi; g) ijodiy yo'nalishda ko'proq yangilikka e'tibor berish, mumtoz adabiy an'alar va shtampli, konservativ poetik tamoyillarni mensimaslik va uning me'yoriy qonun-qoidalaridan chetga chiqishga urinish; d) she'ryatni davr ijodkorlari tomonidan ijodiy faoliyatning muhim turi sifatida emas, balki targ'ibot va tashviqot minbari sifatida qabul qilish; e) an'anaviy mumtoz poetika qonuniyatlarini tadrijiy ravishda inkor etish, aruz vazni qoidalariga muttasil rioya etmaslik, qofiyalash kombinatsiyasida yangi usullarni kiritish, bu tizimiga ijodiy yondashuv; yo) lirik asarlarning nisbatan erkin va muhtasham turlari bo'lmish; tarkibband, tarjeot, musammat va mustazod kabi shakllariga ko'proq e'tibor berish.



Masalaning asosiy jihati esa, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari uchun klassik adabiyotdan ma'rifatparvarlik va jadid ahdiga o'tish davri chegaralarini aniqlash va "delimitatsiya" qilish masalasi XVII asrning o'rtalarida, Evropa va rus adabiyoti tarixiy shakllanish bosqichlari analogiyasi miqyosida belgilangan va o'rnatilgan [11,13]. Ushbu davrabandlik sun'iy ravishda amalga oshirilgan. XVI-XIX asrlardagi o'zgarishlar va adabiy taraqqiyotni to'g'ri tushunish uchun, avvalambor, Markaziy Osiyo feodal jamiyat tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari, sharqona mentalitet va tabiatini, ayniqsa, mahalliy tamaddun tarixidagi evrilish bosqichlarini hisobga olish zarur. Zero, Evropa mamlakatlari tarixiy taraqqiyotiga xilof ravishda deyarli 500 yil davomida bu yurtlarda tanazzul, nisbatan ilmiy-ma'rifiy karaxtlik, qoloqlik hukmronlik qildi va millat madaniy-ijtimoiy hayotida chuqurlashib, burjua tuzilishi unsurlarining o'sishsiz yuzaga keldi. Bu hol, aslida, o'rta asrlar adabiyotidan inqilobiy va favriy ravishda jadid ahdga o'tish jarayonini juda kechiktirdi" [9,12]. Shuning uchun, ma'rifatparvarlik va jadidchilik ahdidan oldingi tojik adabiyotining tarixiy shakllanish bosqichlariga nisbatan "inhitot" (tanazzul), "suqut" (qulash), "rixvat va rukud" (karaxtlik), "inhitot", inqiroz kabi tushunchalarni tatbiq etish to'g'ridir. Bu borada ham qarashlar turlicha.

Ana shu xususiyatlarni e'tiborga olgan holda oxirgi yillarda yaratilayotgan tadqiqot ishlarida bu davr adabiyoti o'tish davri (klassik adabiyotdan yangi davrga o'tish) davri adabiyoti sifatida qaralmoqda. Aslida, nazariy va metodologik asoslari zaif bo'lgan ma'muliy tushunchalar va adabiyot tarixini o'rganishning mavjud tamoyillariga ko'ra nafaqat o'rta asrlar adabiyotidan "jadid ahdi" gacha "o'tish davri" ning chegaralari aniqlanmagan, balki "o'tish davri adabiyoti", yangi adabiy jarayon masalasining o'zi ham ayrim tushunmovchiliklar va biryoqlama qarashlarga olib keladi. Masalan, XIX asrning ikkinchi yarmi adabiyotida yangi davrning muhim hodisasi sifatida yuzaga kelgan "ma'rifatparvarlik" yangi yo'nalish sifatida Evropaning "shonli erlaridan" Sharqning "karaxt va o'lik o'lkalari" ga o'tgani bot-bot takrorlanadi. S.Amirqulovning so'zlariga ko'ra tojik adabiyoti tarixidagi "o'tish davri" ni adabiyotshunosligimizning hozirgi tamoyillari negizida qayta ko'rib chiqish va o'rganish katta ilmiy ahamiyatga ega [10,10-11]. Binobarin, davr adabiyoti evolyutsiyasi va yangilanishida favqulodda shaxslarning turkum xislatlari va fazilatlariga bevosita bog'liq bo'lgan omillar; masalan, jamiyatning erkin fikrlovchi va liberal shaxsiyatlari, fitriy iste'dodlar, jadidlarning kreativligi, Sharq mutafakkirining ijodiy va ruhoniylar kechinmalari, qiziquvchanlik, izlanuvchanlik, o'tmishga xolisona nazar sola bilish, o'tmishdan ibrat olish, hayot mohiyatining pragmatik tomonlarini o'rganish, din va diyonatning asl mohiyatini, olam va odamning o'zaro dialektik munosabatlarini anglash va bu boradagi falsafiy nuqtai nazar, **"ofoq va anfus"** (hayot va voqeyilik haqiqatlarining o'zaro uyg'unligi) zamirida bilish, botiniy tafakkur, aql va idrok asosida haqiqatni izlashga intilish va boshqalarni ham e'tiborga olish zarur deb bilamiz.

So'nggi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ma'rifatparvarlik va jadid adabiyotidagi ayrim yangicha g'oya va qarashlar Sharq falsafasi va tasavvufiy-irfoniy ta'limotlar negizida shakllangan. Ahmad Donish va XX asr boshlaridagi adabiyotining ayrim vakillari, xususan, Abdurrauf Fitrat falsafiy qarashlari ajdodlar merosini milliy tajribalar asosida chuqur va muttasil o'rganish zamirida yuzaga kelgan. Ahmad



Donishning *“hikmati tamaddun va taovun”* ta’limoti va Fitratning *“rohbari najot”* borasidagi falsafiy qarashlari *“ixvanussafo”* (*“najot maslagi”*) ta’limotining nazariy asoslariga uyqash va hamohang. Xuddi shu nuqtai nazardan, bir vaqtlar Ahmad Donish tan olganidek; *“Bu fazilatlarning ko’p qismi mening vujudim va tafakkurimda g’ayriirsiy fazilatlar sifatida davr va zamon ma’muliy (rasmiy) ilmlarini jiddiy o’rganishlarimdan, xorijiy yirik mamlakatlar safarlari taassurotlaridan keyin yuz berdi”* [14,187]. Ma’lum bo’ladiki, Ahmad Donish va uning maslakdoshlari ijodiyoti, eng avvalo, asrlar davomida ajdodlarimiz, xususan Imom /azzoliy, Hakim Sanoiy, Motrudiy, Shayx Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Bahouddin Naqshband va boshqa mutassavvif ulamolar tomonidan yaratilgan boy ilmiy-adabiy, tarixiy-falsafiy, axloqiy va ma’naviy merosdan oziqlanganligini inkor etib bo’lmaydi. Demak, bu davrda ilm-fan, madaniyat va adabiyot sohasining rivojida nafaqat xorijiy davlatlarning tsivilizatsion dunyosi, balki azaldan mavjud milliy madaniy tajriba ham katta ta’sir ko’rsatgani aniq. Bundan xulosa qilish mumkinki, XX asr boshlaridagi ma’rifatparvarlar va jadidlar tomonidan ilgari surilgan o’zlikni anglash g’oyasi, birinchidan, diniy-ma’naviy o’zlikni anglash (mumtoz adabiyot hamda diniy va ma’naviy merosning o’rganilishi) va ikkinchidan, ilmiy-madaniy ta’sir (Evropa mamlakatlari tsivilizatsiya-sidan saboq olish) natijasidir. Shunga ko’ra, Movarounnahrda mahalliy xalqlarning mustaqillik va islohot, maorif va ma’rifatparvarlik yo’nalishidagi ijtimoiy harakatlari tadrijiy ravishda, eng avvalo, milliylik asosida shakllangani ma’lum bo’ladi.

Bu davrning eng etuk shoirlari, jumladan, Ajziy, Fitrat, Furqat, Muqimiy, Jur’at, Rojiiy, Cho’lpon, Munzim, Botu, Sadri Ziyo va Ayniyar Chor Rossiyasi, o’sha vaqtdayoq sho’rolar hukumati tsenzurasini nazarda tutib, she’rlarida hayot haqiqatini ramz va majoz orqali ifodalashga intilishdi. Ajziy ramziy ma’noda ushbu ma’noga ishora qiladi:

Dorad abyotam zi kori dahr ramze dar bag’al,

Sarv agar go’yam zi qaddi yor nameorad xabar.

Ya’ni, mening baytlarim bag’rida ramziy ma’no yashiringan, agar sarv desam, yor qaddidan dalolat emas.

Shu nuqtai nazardan, ushbu davr poeziyasini o’rganishda an’anaviy mumtoz poetik me’yorlar va shakl hamda ma’no munosabatlariga alohida diqqat qaratish zarur. O’zbek adabiyotshunos olimi Nurboy Jabborov Zokirjon Furqat she’riyati misolida muhim bir dalilni keltiradi: *“...bu darajadagi haqqoniy mazmunni qilni qirq yoradigan chor nazorati chig’irig’idan faqat she’riyat vositasidagina o’tkazish mumkin edi. Furqat she’riyati ayni shu fazilatlari bilan ham Sharq she’riyatining o’ziga xos ifoda usulini, ma’no ko’pqatlamligini o’zida mujassam etgan yuksak namunasidir* [15,5]. Bu borada tojik ma’rifatparvarlik va jadid adabiyoti namoyandalari ham o’z zamondoshlaridan qolishmaydi. An’anaviy obraz vositasida yangi ijtimoiy mazmunni ifodalash uni mustabid hukumat nazorati *“Chig’irig’idak”* silliq o’tkazish davr adabiy jarayonining eng muhim jihati va xususiyatlaridandir. Abdulvohid Munzimning Zayniddin Vosifiy she’riga tazmin sifatida bitilgan *“Obu teg”* (*“Suv va tig”*) g’azali shu jihatdan alohida ahamiyatga ega. Ushbu g’azal ancha murakkab bo’lgan sharq adabiyotining iltizom san’ati asosida yaratilgan va shu sababli adabiyotshunoslar tomonidan jiddiy e’tiroflar etilgan. Shoirning ayni uslubni tanlashi bejiz emas, chunki an’anaviy *“ob”* (suv) va *“tig”* (xanjar) she’riy



timsollari voqeiylikni haqqoniy tasvirlash uchun bir vositadir. S.Tabarov fikricha, shoir har ikkala tasvir ob'ekti – “suv” va “xanjar” dan mahorat ila foydalangani undagi ifoda tarzi va bayonining xilma-xilligi va g'azalning g'oyaviy-badiiy qiymatini ta'minlaydi. Bunda badiiy san'at va tasvir vositalari - tashbih, tajnis, takror, muqobala, e'not, tanosub, mukolama va boshqalar lirik qahramonning ma'naviy olamini kashf etishga yordam beradi” [12,91]. Darhaqiqat, irfoniy poetik shakl va mazmun mutanosibligi g'azalning mana bu satrlarida yaqqol namoyon bo'lgan:

*Zani ba teg'u bitobiy ruxu azob dihi,
Azobi mo tu ba in rang obutob dihi.
Namezani ba dami teg'i tez, mexohi,
Maro chu mohii beob iztirob dihiy.
Nodida ob, ba kaf teg', tashna xohi kusht,
Chi kardam, ki maro in qadar azob dihi...[12,91]*

Ushbu davr she'riyatida zamon va falakdan shikoyat motivlari ham o'ziga xos poetik shakllar vositasida talqin etildi. Qori Rahmatullohi Vozeh va Shamsiddin Shohindan boshlab ko'pgina shoirlar deyarli barcha lirik janrlardagi asarlarida ushbu motiv kuzatiladi. Ajziy va Vasliy ijodida realistik tasvir va ijtimoiy voqeiylikka munosabat boshqa shoirlardan tubdan farq qiladi. Shoir “gireboni xalqro girftan” (xalq yoqasidan olish) iborasi o'rniga hayratlanarli tarzda “du dastash dar girebon” (ikki qo'li yoqada), ya'ni irfoniy-tasavvufiy “rijo”- tavba qilish iborasidan foydalanadi:

*Fig'on zi kajravii olamu zamon shum,
Dar oshyonai **bulbul** girifta maskan **bum**.
Ba xok xufta **shahidonu** shod mardumi mo,
Zi shodmonii mardum morost dil mag'mun....
Zi **shahdi ilmu hunar** lazzat ar namegiri,
Ba **zeri chohi sairiyu to"maat zaqum**.
Zi **maktabi adab** ar bahra mebari, Ajzi,
/ulomi ko'i tu gardad **hazor qaysari Rum**.*

“Dar oshyonai bulbul maskan giriftani bum” (bulbul uyasida boyqushning maskan olishi), “zi **shahdi ilmu hunar** lazzat”, “zi **maktabi adab** bahra” iborolari garchi an'anaviy klassik yo'sinda yangrasa ham, yangicha ma'rifatparvarlik mazmunning badiiy ifodasidir. Ya'ni shu o'rinda adabiy tabdil o'odisasini kuzatish mumkin.

“Oyina” jurnalida 1913 yili Fitratning aslida Turkiyada bitilgan va “Sayha” milliy she'rlari to'plamidan joy olgan “Toziyonai ta'dib” sarlavhali tarkibbandi chop etilgan. Ushbu tarkibband tahlili Fitratning o'z davri shoirlari kabi mumtoz badiiyat an'analariga rioya etish barobarida, davr she'riyatiga yangicha mazmun olib kirganidan dalolat beradi. “Toziyonai ta'dib” she'rining asl mohiyati va asosiy mavzusi intellektual tamaddun - ilm va ziyo, madaniyat va insoniylik g'oyalarini uyg'unlikda targ'ib etishdir. Unda “andisha” tushunchasi teran mohiyat kasb etgan. S.Tabarov nazdida, ushbu she'rda “erkin fikrlovchi, demokratik, mulohazali, ma'rifiy va yangicha qarashlar va mafkuraviy g'oya ilgari surilgan bo'lib, ular shoir tomonidan insoniyat, adabiyot va san'atni o'rganish, harakat qilish va kelajakni yaxshi fazilatlar bilan ziynatlash hamda aqlu fazilat ila bugungi kunga muvofiq tarzda xalqni yanada jipslashtirish uchun foydalanadi” [12,178]. She'rda lirik



qahramonning holati, umidsizlik ya'ni tasavvuf va irfonda xavf, haqirlik, mahzunlik, toriqish va g'am-g'ussaga to'la qalbi va ruhiy kechinmalari mahorat bilan tasvirlangan. Ammo bu qayg'u va tushkun ruhiy holat nafaqat shoirning, balki butun Buxoro amirligi, qolaversa millatning dardidiga tabdil bo'lgan, ya'ni fardiylikdan ijtimoiylashuv sari ko'chgan.

Ammo tarkibbandning yangiligi faqat uning tarkibi va uslubidagina emas. She'rning boshidan oxirigacha harakat va amaliyotning dinamik holati, tasvirlash usuli, shoir yoki lirik qahramoni - "men"ining xayoliy obrazi, "andisha"ning mavhum va tasavvuriy timsoli orqali ifodalangan. Biroq bu ikki timsol bir-biriga do'st ham, dushman ham emas, aksincha, bir biriga tayanadi, o'zaro yaqindir. Uslub jihatdan ushbu she'rda musohaba shakli, ikki tomon - lirik qahramon va "mutafakkir" ning maxfiy savol-javobi kuzatiladi:

Dishab ba kunji g'amkadai tangu tori man,

Otash girifta bud dili beqarori man.

Bo girya doshtam qadare hasbi hol, lek

Andesha - on rafiqi shafokatshiori man,

Bo qomati xamidavu bo chehrai anif,

Doxil shudu nishast hame dar kanori man.

Gufto: "Chi gunai, ba chi kori va hol chist,

Bozat chunin rasida malolu kadam zi kist"? [7,29]

Mazmuni; Kecha menining qorong'u va torgina kulbamda qalbm beqarorligi, yig'i bilan dardlashayotganimda, "andisha" mening shafokatli do'stim sifatida g'amgin chehra va egilgan qomat bilan oldimga kirib keldi va mendan hol va ahvol so'radi.

Shoir lirik qahramonining ruhiy holatini tashxis san'ati orqali o'ziga xos yondashuv va uslublar bilan ochib beradi. Ma'rifatparvar shaxs - "men" nidosining ikkinchi tasavvuriy qahramon-"andisha"dan farqi shundaki, o'zining ritorik so'roqlari mazmunli va mo'jazligi bilan ilm-fan va madaniyatga intiluvchi tipologik obrazni mujassam etgan. "Andisha"-zamon shoirlari uchun tarixiy-azaliy-"mushki Xo'tan", "bodi sabo", "nakhat", "piri murshid", "piri ma'naviy", "piri hakim" kabi irfoniy va tasavvufiy ramziy xarakterga ega. Davr she'riyatida aynan shu kabi timsollarga tayanildi. Bunda shoir hayot haqiqatlaridan xulosa chiqarib, muayyan shaxsga emas, balki "fikir", "xayol orzu" va "tafakkur" ga murojaat qiladi. Lirik qahramon hamdardini avval "yoniga o'tqazib", unga olam taraqqiyoti haqida arz qiladi va quyidagi javobni oladi:

Insof deh, mulohiza kun, binshin, bigo'y,

K-az qavmi mo baroi chi gardond baxt ro'y?!

"Andesha" z-in savoli man aftod dar **shigift**,

Xandidu girya kardu sukute namudu guft:

Alg'ofil az daqoiqi qonuni zindagi,

*V-ey monda peshi chashmi tu **sirri jahon** nuhuft.*

*Doni, ki dahr **ma'razi sa'y** astu ijtihad,*

In jo namedihand ba kas obu noni muft.

Har kas ba qadri har chi biko'shad, k-az o' barad,

Gandum fishonda, gandumu jav kishta, jav barad [7,29].



Mazmuni: *Insof ila mulohaza qil, o'tirgin ayt, nima uchun bizning qavmimizdan baxt yuz o'girdi. "Andisha" mening bu savolimdan hayratda qoldi, kuldiyu, yig'ladi va ayladi sukut. Nihoyat javob qaytardi, ey turmush oniy lahzalarining g'ofili, ey, sening ko'zlarindan pinhon qolgan dunyo sirlari, bilurmisan bu olam ijti hod va sa'yu harakatlar zaminidir, bu joyda kishiga tekinga nonu suv bermaslar. Har kim harakatlari evaziga bu dunyodan o'z sa'mini olar, bug'doy ekan, bug'doy o'rar, arpa ekan, arpa.*

Fitrat adabiy-estetik tafakkurida yangicha mazmunning "andisha" timsoli orqali ifodalanganida ko'rinadi. Anishamandlik va uzoqni ko'ra bilish tasavvuf ao'lining xislatlaridan biridir. Shoir zamonning eng muhim va dardli mavzulariga, Donish, Shohin, Savdo, Mirzo Hayit Sahbo, Ajziy, Asiriy kabi shoirlar asarlarida aks etgan adolatsizlik va tengsizlik, mang'itiya amirligi davridagi tanazzul, turg'unlik va axloqiy buzuvchilik holatlari, Buxoro xalqining nochorligi va qashshoqliklarga dosh berib yashaganlaridan nadomatlarini yuksak mahorat bilan tasvirlagan.

Demak, ma'rifatparvarlik va jadidizm davri poeziyasining muhim lingvopoetik xususiyatlaridan biri shundaki, davr shoirlari zohiran mumtoz adabiyot me'yoriy poetikasining o'ziga xos ijodiy tamoyillarini saqlab qolishdi, ammo chuqurroq razm solinsa, mazkur davr milliy she'riyatida badiiy timsollar tizilmasining mukammal evolyutsiyasi, badiiy timsollar hamda nuktalar va sharhlar tajaddudi, ifoda va bayon uslubidagi keskin o'zgarishlar yuzaga keltirildi. Ma'rifatparvarlik va jadid she'riyati tilida istehzoli kinoyalar, maxsus metaforik birikmalar va ramziy ma'nolar silsilasining tadrijiy rivojlanish jarayoni yuzaga keldi, uning uslubida shiddatli ritorik motivlar, keskin hamda viqorli nutq uyg'unligi kuzatiladi. Yangi davr she'riyatidagi pand-nasihatga yo'g'rilgan mazmun ham o'ziga xos jilolar va maxsus motivlarga ega bo'lib, hayotning asl voqeiy mohiyatiga uslubiy ravishda moslashtirildi.

Shu tariqa, xulosa qilish mumkinki, ma'rifatparvarlik davridan oldin, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmida tojik adabiyotida adabiyotshunoslar ma'rifatparvarlik davri hodisasi hisoblagan va ma'rifatparvarlik adabiyotiga nisbat berilgan yangi tendentsiya mavjud edi. Bu tendentsiya tarixan ma'rifatparvarlik raviyasi emas, balki o'ziga xos o'tish davrida paydo bo'lgan evropacha talqin tarzi hisoblanadi.

References:

1. Asiri Toshxoja. Ash'ori muntaxab. - Dushanbe: Adib, 1987. - 190 sah.
2. Ahmadi Donish. Navodir-ul-vaqoe'. Muharrironi mas'ul: R.Hodizoda, A.Devonaqulov. Iborat az du kitob. Kitobi yakum. - Dushanbe: Donish, 1988.- 286 sah.; Kitobi duvvum. - Dushanbe: Donish, 1989. - 370 sah.
3. Ishqi Mirzoda. Kulliyoti musavvarai Mirzodai Ishqi; bo ko'shishi Saidhodii Hoyiri. - Tehron: Chopi duvvum.1375 h.sh. - 740 sah.
4. Lohuti Abulqosim. Kulliyot. Ib. Az 7 j. Qildi I. (1899-1925). - Dushanbe: Adib, 2014. - 408 sah.
5. Farruxi Yazdi. Devon. Bo ittihomi Husayn Maki. - Tehron: Intishoroti Sipehr. 1369 h. -345 sah.
6. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995. - 46 b.



7. Fitrat Abdurrauf. Tavofi vatan. (Bo peshguftor va tahiya lug'atnoma va tavzehoti Muhammadyusuf Imomov va Masrur Abdulloev). - Dushanbe: Sharqi Ozod, 2013. - 46 sah.
8. Ayni S. Namunai adabiyoti tojik. - Dushanbe: Adib. - 2010. - 447 sah.
9. Amirqulov S. Takomili adabiyoti tojik dar nimai yakumi asri XIX. - Dushanbe: Donish, 1997. - 182 sah.
10. Amirqulov S. Nigohe ba inkishofi ta'rixi adabiyoti tojik dar Movarounnahr (Qarni XIX). - Dushanbe: Irfon, 2010. - 232 sah.
11. Manniyozov A.M. Publitsistika va nazmi ustod Ayni. - Stalinobod: Nashrdavtoj, 1958. - 150 sah.
12. Tabarov S. Munzim. - Dushanbe: Irfon, 1991. - 148 sah.
13. Tabarov S. Ҷahoni andeshahoi Abdurraufi Fitrat. Ҷildi I - Dushanbe: Donish, 2008. - 714 sah.
14. Mirzozoda X. Osiyoi osmon to chand gardonam ba sar. (Nazare ba ahvol va she'riyati shoir va omo'zgor Siddiqii Ajzi). // Omo'zgor. - № 7. Avgusti soli 1990. - S.8-9.
15. Teoriya literaturo': v 2-x t. / Pod red.N.D. Tamarchenko. - Moskva: Akademiya, 2004. - T.1, 2. - 513, 360 s.
16. <https://cyberleninka.ru/article/n/transformatsiya-hudozhestvennyh-obrazov-i-tendentsii-sovremennoy-komparativistiki/viewer>. M.Yu.Dondokova. Transformatsiya xudojestvennix obrazov i tendentsii sovremennoy komparativistiki.
17. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-nurboy-jabborov-furqat-1859-1909/>